

**TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRANI TIKLASHDA TURKISTONDA
TA'LIM TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONLARI
(1917-1924- YILLAR)**

Yulduz Boboqulovna Tursunova,

*“University of Business and Science” “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.
yulduztursunova1083@gmail.com*

Pardayeva Madina Baxtiyor qizi,

*University of Business and Science Toshkent filiali, Tarix yo'nalishi 23-01-guruh talabasi
tjgguul@gmail.com*

Anonatsiya. Ushbu maqolada 1917–1924-yillar davrida Turkistonda ta'lim tizimining shakllanish jarayonlari, inqilob va ta'lim islohotlarining o'lkadagi ijtimoiy-ma'naviy hayotga ta'siri hamda jadidchilik harakatining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jadid maktablarining paydo bo'lishi, ularning maqsad va vazifalari, Turkiston o'lkasida milliy uyg'onishning kuchayishi jarayonida tutgan o'rni ko'rsatib o'tiladi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, jadidlar harakatining yangi bosqichga o'tishi, ularning istiqlol yo'lidagi kurashi, shuningdek, milliy tashkilotlar faoliyati haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston ta'lim tizimi, jadidchilik, yangi usul maktablari, ma'rifatchilik, jadid maktablari, mustamlakachilik siyosati, Turkiston Muxtoriyati, istiqlolchilik harakati, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы формирования системы образования в Туркестане в период 1917–1924 годов, влияние революции и образовательных реформ на социально-духовную жизнь региона, а также роль джадидского движения. Освещается возникновение джадидских школ в конце XIX — начале XX века, их цели и задачи, а также их значение в процессе усиления национального пробуждения в Туркестане. Кроме того, рассматривается переход джадидского движения на новый этап после установления советской власти, их борьба за независимость, а также деятельность национальных организаций.

Ключевые слова: система образования Туркестана, джадидизм, новометодные школы, просветительство, джадидские школы, колониальная политика, Туркестанская автономия, движение за независимость, Бухарская Народная Советская Республика, Хорезмская Народная Советская Республика

Abstract. This article analyzes the processes of formation of the education system in Turkestan during the period of 1917–1924, the impact of revolution and educational reforms on the socio-cultural life of the region, and the role of the Jadid movement. It also examines the emergence of Jadid schools in the late 19th and early 20th centuries, their goals and objectives, and their significance in the rise of national awakening in Turkestan. Furthermore, the article highlights the transition of the Jadid movement to a new stage after the establishment of Soviet power, their struggle for independence, and the activities of national organizations.

Keywords: Turkestan education system, Jadidism, new-method schools, enlightenment, Jadid schools, colonial policy, Turkestan Autonomy, independence movement, Bukhara People's Soviet Republic, Khorezm People's Soviet Republic

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo xalqlari taqdiri uchun keskin siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga kirib kelishi natijasida o'lka mustaqilligi cheklana boshladi, ijtimoiy hayotda mustamlakachilik siyosatining salbiy ta'siri kuchaydi, ta'lim tizimi, diniy-ma'rifiy muassasalarning faoliyati izdan chiqdi.

Turkistonda Rossiya imperiyasi siyosiy hukmronlikka erishgach, o'lkadagi davlat tizimi izdan chiqdi. Imperiya xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratdi. Podsho ma'muriyati xon va amirlarning vakolatlarini chekladi. Shuningdek, aholining talab va ehtiyojlari nazarga, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik holatlari kuchaydi. Bundan tashqari ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi. Natijada, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik yuzaga keldi. O'sha davr mustamlakachilik siyosatining xalq ruhiyatiga ko'rsatgan salbiy ta'siri Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon)ning “Xitobnoma”sida (1898) bayon etilgan.

Aynan shunday murakkab tarixiy sharoitda xalqning milliy uyg'onish ehtiyoji tobora ortib, zamonaviy fan-texnika yutuqlariga mos ravishda yangi ma'rifiy harakat – **jadidchilik** harakati maydonga chiqdi.

Muhokama va nitijalar. Jadidchilik harakati XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil G'aspirali boshchiligida shakllangan bo'lib, “usuli jadid” deb ataluvchi yangi maktab tizimi orqali turkiy xalqlarni zamonaviy ilm-fan bilan tanishtirishni maqsad qilgan edi. G'aspiralining “Til birligi, fikr birligi, amal birligi”[1] shiori qisqa fursatda Qrimdan tashqariga, jumladan, O'rta Osiyoga ham tarqaldi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab jadidchilik Turkistonda keng ildiz ota boshladi va mintaqa madaniy, siyosiy taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Jadidlar millatning uyg'onishi uchun kurashdilar, turkiy tillarni rivojlantirish, dunyoviy fanlarni o'rganish, ayollar va erkaklar tengligi, milliy maktablarni isloh qilish, zamonaviy darsliklar yaratish, milliy matbuotni yo'lga qo'yish va xalqni jaholatdan chiqarishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yidilar. Ularning bosh g'oyasi – jamiyatni ilm-ma'rifat orqali yangilash, milliy ongni uyg'otish, xalqlarni zamonaviy taraqqiyotga olib chiqish edi. Bu g'oyalar qisqa fursatda Kavkaz, Volgabo'yi, O'rta Osiyo, hatto Sibir musulmon yurtlariga tarqaldi. Keyinchalik ular siyosiy jarayonlarga ham faol aralasha boshladilar. Jadidlar sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi siyosiy o'zgarishlarda, milliy davlat qurilishi jarayonida ham muhim rol o'ynadilar. Ushbu harakat avvalo madaniy-ma'rifiy xarakterga ega bo'lib, uning asosiy maqsadi turkiy xalqlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish edi.

**“XXI ASRDA TARIHIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”
XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

Ismi-sharifi	Tug‘ilgan yili	Tug‘ilgan joyi	Asarlari	Vafoti
Abduqodir Shukuriy (Shakuriy),	1875	Samarqand	„Savod o‘rgatish yo‘riqnomalari“, „Zubdat-ul-ashar“	1943 y.
Azjiy (taxallusi; asl ismi Saidahmad Hasano‘ja o‘g‘li Siddiqiy)	1864	Samarqand	“Ayn ul-Adab”, “Miroti ibrat”, “Ganjinai hikmat”	1927
Munavvarqori Abdurashidxonov	1878	Toshkent shahri	“Adibi avval”, “Adibi ussoniy”, “Yer yuzi”	1931
Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev	1878	Toshkent	Asari yo‘q	1942
Fayzulla Xo‘jayev	1896	Buxoro	„Buxoro inqilobining tarixiga materiallar“, „Buxorodagi revolyutsiya va	1938
Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev	1878	Fargona	Asari yo‘q	1968
Abdulvohid Burhonov	1875	Buxoro	“Tarbiyai atfol” (Bolalar tarbiyasi)	1934
Orifjon Olimjonov	1898	Jizzax	Asari yoq	1937
Abdurauf Fitrat	1886	Buxoro	„Abulfayzxon“, „Bedil“, „Qiyomat“, „Shaytonning Tangriga isyoni“	1938
Ashurali Zohiriy	1885	Qoqon	“Turkiy xrestomatiya yoxud terma kitob”, “Imlo”, “Ruscha o‘zbekcha lug‘at”	1937
Abdulla Badriy	1893	Samarqand	“Ogay Ota”, “Juvonmarg”, “Ahmoq”, “Boyvachcha”	1936
G‘ulom Zafariy	1889	Toshkent	“Bahor”, “Gunafsha”, “To‘sqinchilik”, “Yorqonoy”, “Rahmli o‘qituvchi”	1938
Muxtorjon Yo‘ldoshevich Saidjonov	1893	Buxoro	Asari yoq	1937
Rahmat Rafiqov	1886	Buxoro	Asari yoq	1930
Abdurahim Yusufzoda	1880	Andijon	Asari yoq	1937
Abdulla Qodiriy	1894	Toshkent	“Otgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Baztsiz kuyov”	1937
Cho‘lpon	1898	Andijon	Kecha va kunduz	1938
Lutfullo Olimiy	1893	Namangan	“Nodira”, “Qizil adabiyotning hozirgi ahvoli”, “Unitilmas shoir”	1969
Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov		Toshkent		1930

Bu harakat vakillari zamonasining ilg‘or ziyolilari bo‘lib, xalqni ma‘rifat asosida uyg‘otish, ilm-fan taraqqiyotidan bahramand qilish, milliy maktablar va ta‘lim tizimini isloh etish, adabiyot va matbuotni rivojlantirish, jamiyatda tenglik tamoyillarini qaror toptirish kabi ezgu g‘oyalarni ilgari surdilar.

Quyidagi jadval o‘zbek jadidchilik harakati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ma‘rifatparvarlar, yozuvchilar, pedagoglar va siyosiy arboblarning hayoti va ijodiga doir muhim ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur jadval jadidlar merosini tizimli ko‘rinishda aks ettirishga, ularning o‘lmas g‘oyalarini ilmiy asosda o‘rganishga ko‘maklashadi.

1917-yil fevral va oktabr inqiloblari Turkiston tarixiga jiddiy siyosiy o‘zgarishlar olib kirdi. 1917-yil noyabrda Turkiston Muxtoriyati e‘lon qilindi, biroq 1918-yil fevralda bolsheviklar tomonidan qonga botirilgach, jadidchilik harakatida tub burilish yasadi. Sovet rejimi bilan murosa qilishni xohlamagan Turkiston jadidlarining katta qismi istiqloqlilik harakati saflarida va yashirin milliy tashkilotlarda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ayrimlari sovet hukumati idoralarida ish boshlashga majbur bo‘ldilar [2].

1920-yil 1-7- sentabrda Bokuda o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyi jadidlarning siyosiy faoliyatida yangi yo‘nalish boshlab berdi. Unda Turkistondan 90 nafar delegat qatnashdi [3]. Qurultoy bolsheviklarning Angliyaga qarshi siyosiy tashviqot maydoniga aylanib qolgan bo‘lsa-da, turkistonlik delegatlar bu yig‘indan o‘z milliy manfaatlarini yo‘lida foydalanishga harakat qildilar. Qurultoyda qabul qilingan qarorlar Turkiston xalqlarining keyingi taqdirida muayyan rol o‘ynadi. Unda Munavvarqori, Turor Risqulov, Cho‘lpon, Salimxon Tillaxonov, Rajab Muhamedov, Quدراتilla Yunusov, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Obidjon Mahmudov, To‘raqul Jonuzoqov, Zayniddin qori Nasriddinov, Hoji Safo Jo‘raboyev, G‘ozi Yunus kabi millat fidoyilari ishtirok etdilar [4] Qurultoy ishida Turkiyadan kelgan va shaxsan Leninning o‘zi yuborgan Anvar podsho ham qatnashdi. Biroq, mazkur qurultoy bolsheviklarning Angliyaga qarshi qaratilgan majlislarda ayon bo‘ldi. Shu bois turkistonlik 40 nafar delegat qurultoy tugagach, o‘zaro kengash o‘tkazib, unda „Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi tashviqot ishlari“ni avj oldirishga va „Oktabr inqilobining uch yilligi kunida umumxalq qo‘zg‘oloni ko‘tarish“ga ahd qildilar[5]. Biroq, ularning bu rejasi to‘liq amalga oshmadi. Turkiston jadidlari faoliyati butun o‘lkani qamraydigan, inglizlarning maktab dasturiga yaqin dastur asosida ishlaydigan „Turon kuchi“, „Turk kuchi“, „Temur“, „Izchilar“, „Lochin“ kabi guruhlarini tuzdilar[6]. Bu guruxlar o‘rta maktab ta‘limi, hunar, san‘atdan tashqari, harbiy mashqlar bilan shug‘ullanib, sho‘rolarga asosiy zarba beruvchi kuch sifatida ko‘rina boshladi.

1920-yil sovet rejimi bu guruhlar faoliyatini tugatdi. Farg‘ona va Toshkentdagi voqealar yakuni jadidlarning umidlarini so‘ndira olmadi.


Xulosa. Ular Buxoro respublikasi rahbarlari bilan birgalikda ish boshladilar. Buxoroda jadid taraqqiyparvarlar firqasi tuzildi. Bu firqa dasturiga ko‘ra, davlatni jumhuriyat raisi (prezident) va parlament boshqarishi ko‘zda tutilgan edi. 1921-yil 2-5-avgustda Buxoroda Zaki Validiy boshchiligida Turkiston milliy birligi tashkiloti tuzildi[7]. Turkiston milliy birligi tashkiloti hamda Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida 1919-yilda tuzilgan **“Milliy ittihad”** tashkiloti o‘zaro yaqin hamkorlikda faoliyat yuritgan. Ushbu ikki siyosiy tuzilmaning mafkuraviy qarashlari, kurash uslubi va maqsadlarining mushtarakligi ularning Turkiston mintaqasida milliy-ozodlik harakatining muhim kuchlariga aylanishiga sabab bo‘lgan[8]. Har ikkala tashkilotning bosh maqsadi, **Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va butun Turkiston hududida sovetlashtirish hamda ruslashtirish siyosati kuchayishi sharoitida milliy manfaatlarini himoya qilish**, mintaqaning siyosiy, madaniy va iqtisodiy mustaqilligini tiklashga erishishdan iborat edi. Ular bolsheviklar tomonidan olib borilgan markazlashtirish, mahalliy elitalarni siyosiy jarayondan chetlashtirish, turkiy xalqlar orasida o‘zlikni yemiruvchi siyosatga nisbatan muvofiqlashtirilgan qarshilik namoyon qildilar.

1920-yillarning o‘rtalariga kelib, sovet hukumatining siyosiy bosimi kuchayib borar ekan, milliy harakatning tashkiliy strukturasi va kurash strategiyasini yangilash zarurati tug‘ildi. Shu sharoitda 1925-yilda “Milliy ittihad” negizida **“Milliy istiqlol”** nomli yangi tashkilot tuzildi[9]. Bu tashkilot oldingi harakatlarning tajribasini umumlashtirib, faoliyatini yanada maxfiy tarzda davom ettirdi, shuningdek, Turkiston mustaqilligi g‘oyasini aniq siyosiy dastur sifatida ilgari surdi. Har ikki tashkilotning kurashi sovet mafkuraviy tuzumiga qarshi milliy o‘zlikni asrash, hududiy yaxlitlikni saqlash va o‘lkadagi boshqaruvni tiklashga qaratilgan edi. Mazkur tashkilotlar faoliyati Turkiston tarixida mustaqillik uchun olib borilgan siyosiy kurashning uzviy bo‘g‘ini bo‘lib, XX asr boshidagi milliy uyg‘onish harakati (jadidchilik)ning siyosiy ifodasi sifatida baholanadi.

Umuman olganda, 1917–1924-yillar ta‘lim islohotlari jarayonlari va milliy uyg‘onish harakatlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular Turkistonda zamonaviy ta‘lim tizimining shakllanishiga, milliy ongning uyg‘onishiga, ozodlik g‘oyalarning kuchayishiga zamin yaratdi. Jadidlarning ma‘rifiy merosi, milliy tashkilotlar faoliyati va istiqlolchilik harakatining davomiyligi keyingi davrlarda ham o‘lkadagi ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarga zamin bo‘ldi. Ushbu tarixiy jarayonlar bugungi kunda mustaqillik, ma‘naviy tiklanish va ta‘lim taraqqiyotining tarixiy ildizlarini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurashidova M, Xotiralarimdan, Toshkent 2001.
2. Risqulov, Revolyusiya I korennoye naselniyei Toshkent
3. Ziyod Sayd, O‘zbek vaqtli matbuotga oid materiallar {1870-1927}.Toshkent.1927.
4. Mustafo Choqay ogli Istiqlol jalljdlari Toshkent 1992.
5. Cholpon Asarlari 1-2jildlari, Toshkent 1994.
6. Rajobova R.va boshqalar Ozbekiston tarixi (1917-1993-yillar] Toshkent 1994.
7. Hojajev F.Buxoro inqilobning tarixiga matriallar Toshkent 1997.
8. Туманова, Ш. *Туркистонда миллий-озодлик ҳаракатлари тарихи.* — Тошкент. Фан, 2001. – Б. 112–118.
9. Validiy bolingni bori yer (Xotirlar), Toshkent 1997.



**UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE**